

## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – davom etayotgan islohotlarning aksidir

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5442,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Taqqlaslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 10,1 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmi  
5442,5 mlrd. so'm**

**Moliyaviy  
xizmatlarning  
o'sish sur'atlari  
160,7 %**

**2019-yil yanvar-iyun oylarida  
eng yuqori ko'rsatkichlar**

**Xizmatlarning  
umumiylajmida  
savdo xizmatlari  
ulushi 29,7 %**


**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi  
Samarqand sh.  
6514,4 ming so'm**

**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>5442,5</b>	<b>110,1</b>	<b>1426,2</b>
Samarqand shahri	3519,7	111,9	6514,4
Kattaqo'rg'on shahri	114,5	104,7	1295,7
tumanlar:			
Oqdaryo	125,0	104,2	800,1
Bulung'ur	112,3	106,8	611,8
Jomboy	144,4	111,0	857,0
Ishtixon	126,7	105,2	509,1
Kattaqo'rg'on	116,3	105,3	433,7
Qo'shrabot	98,3	103,6	762,5
Narpay	119,3	107,9	569,6
Payariq	124,0	106,3	505,3
Pastdarg'om	162,4	109,6	467,3
Paxtachi	95,4	104,0	672,5
Samarqand	202,0	108,6	816,5
Nurobod	91,6	105,1	620,8
Urgut	150,0	109,1	301,6
Tayloq	140,6	107,1	714,6

Xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi eng ahamiyatli hisoblanadi - 64,7 % ni tashkil etadi. Shuningdek, eng katta ulush Samarqand (3,7 %), Pastdarg'om (3,0 %), Urgut (2,8 %) va Jomboy (2,6 %) tumanlarida qayd etilgan.


### 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Eng past ko'rsatkichlar Nurobod va Paxtachi tumanlarida (1,7 %), Qo'shrabotda (1,8 %), Kattaqo'rg'on hamda Bulung'ur tumanlari shu bilan birga, Kattaqo'rg'on shahrida (2,1 %) qayd etildi.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 230,7 ming so'mga oshdi va 1426,2 ming so'mga teng bo'lди, o'sish 107,8 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha  
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar (o'sish sur'atlari), %**




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Samarqand shahrida (110,1 %), Jomboy (108,2 %), Pastdarg'om (107,4 %), Samarqand va Urgut tumanlarida (106,3 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qo'shrabot (101,3 %), Paxtachi (102,0 %), Oqdaryo (102,3 %), Ishtixon (102,8 %) va Nurobod (102,9 %) tumanlarida qayt etildi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida transport, savdo, moliyaviy va ta'lrim sohasidagi xizmatlar hajmining o'sishi kuzatildi.

**2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan  
ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm**




Hajmning oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanishi mumkin, jumladan: Internet-sotish, yangi savdo markazlari, oziq-ovqat tashkilotlari, mehmonxonalarni ochish, ta'lim muassasalari xizmatlarini kengaytirish, ko'ngilochar industriyasida katta tanlov kabi yangi turdag'i xizmatlar bozoriga chiqish.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5442,5</b>	<b>110,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	283,0	108,6
Moliyaviy xizmatlar	702,3	160,7
<b>Transport xizmatlari</b>	<b>1424,7</b>	<b>104,2</b>
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1289,1	101,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	161,6	109,1
Savdo xizmatlari	1617,1	104,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	157,6	101,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	209,4	104,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	79,7	106,0
Ijara xizmatlari	180,5	100,7
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	158,4	99,5
Shaxsiy xizmatlar	237,6	100,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,8	112,1
Boshqa xizmatlar	173,8	111,6

**2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**




Transport xizmatlari hajmining ortishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

Joriy davrda, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ularning ulushi 26,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng katta ulush savdo xizmatlari (29,7 %), moliyaviy xizmatlar (12,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %), shahsiy xizmatlar (4,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (3,8 %) kuzatildi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 90,5 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida boshqa transport faoliyatining hajmi esa 9,5 % qayd etildi.

Savdoning iqtisodiy mohiyati - ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga sotish va sotib olish yo'li bilan tovarlarni sotishga vositachilik qilishdan iborat. Savdo, faoliyat sohasi sifatida pul muomalasi va viloyatning moliyaviy tizimi bilan chambarchas bog'liq. Savdo orqali tovarlarning asosiy qismi ularni bank sohasiga muntazam ravishda tushib turadigan aholining pul daromadlariga almashtirish orqali sotiladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1617,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.


### **Savdo xizmatlari**



Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi - 73,5 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,4 % ga yetdi.

### **2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %**



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 702,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,1 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 283,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishi 8,6 % ga etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,8 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 1,3 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarininig boshqa turlari - 0,4 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-iyun oylarida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 209,4 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 104,5 % ni tashkil etdi.


### **2019-yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar ko'rsatkichlarini taqqoslanishi**



2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 9,1 % ga o'sdi, hajmi esa 30,4 mlrd. so'mga oshdi va 161,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 79,1 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.


**2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**



2019-yil yanvar-iyun oylarida sog'lqn ni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 79,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni 29,4 mingtani tashkil qilib, shundan xizmat sohasida hisobga olingan korxona va tashkilotlar soni 19,2 mingta (65,2 %) ni tashkil etdi.


**2019-yil 1-iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-iyul holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,9 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholi hayoti sifatini munosib ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**71-230-85-35**